

## TARIX FANINI O'QITISHDA DARSDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

*Farg'onan viloyati O'zbekiston tumani  
1-sod kasb- hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi  
G'oibnazarova Muhayyo*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarix fanini o'qitishda darsda qo'llanadigan innovatsion pedagogik texnologiyalar haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tildi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik texnologiya, ta'lif, tahlil, mashg'ulot, ko'rgazma, tarqatmalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lif samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bunda ta'lif mazmunining mohiyati eng avvalo mavzuning turli yangicha uslublardan foydalangan holda ochib berilishini, tushuncha va tamoyillarni anglatadi. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'lifning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlirlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bugungi kunda ta'lif muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir: O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim xayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtayi

nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsyon jarayonlarda ta'lif tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zları tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.Shuning uchun ham, ta'lif muassasalarining o'quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta'lilda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor yoki boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi o'qituvchi yoki talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.Tarix darslarini tashkil etishda yangicha pedagogik texnologiyalar o'rni muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bu borada darslarda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Dars mavzusini tushuntirayotganda ma'lum bir davrdagi muhim tarixiy voqelik ko'rsatilsa mavzuning mazmuni yanada aniq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi masalan janglar tasvirlangan videolavhalar o'quvchilarga multimedia shaklida ko'rsatilganda yanada o'zlashtirish mukammalroq bo'ladi.Bundan tashqari, turli xil ko'rgazmalar, tarqatmalardan foydalanib mavzu ustida ishslash ham ijobjiy samara beradi. Dars jarayonida ko'pincha yangi mavzu materiallarini tushuntirib berayotganda aqliy hujum ,SWOT metodlaridan samarali foydalanish mavzuning mazmunini mukammal ochib berishga xizmat qiladi.Shuningdek, dars jarayonida yangi mavzuni test savollari tarzida tayyorlab, o'quvchilar bilan birgalikdan bosma tekstlar bilan ishslash ham yangi mavzuning

mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Asosiy maqsad o'quvchi shaxsining mavzuni o'zlashtirib olishiga qaratilar ekan, qanday uslub va usullardan foydalanmaylik, asosan, ta'limning sifat samaradorligiga erishishimiz faoliyatimizning asosiy maqsadi bo'lib qolaveradi. Tarix darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchi bilan birgalikda o'qituvchining ham mavzu ustida yanada mukammalroq ishlashiga olib keladi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

- 1.Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati. «Xalq ta`limi», 1999 y,
- 2 .Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.o'quv qo'llanma. Qarshi, «Nasaf», 2000 y
- 3.www.texnology.uz
- 4.Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalar kitobi.ma'ruza
- 5.www.akt.turlari